

g – 9,81 m/sek ga teng bo'lgan erkin tushish tezligi;
N – suvning metrlardagi bosimi;
t – vaqt- 24 soat, sekunlarda;

Quyidagi holatlarda:

- 6.3.1. "Iste'molchi"da suv o'lchash asbob va moslamalari yo'q bo'lgan holatlarda (yoki nosoz xolatda);
- 6.3.2. Suv o'lchash asbobi yoki moslamasi "Ta'minotchi"da ro'yhatdan o'tmagan taqdirda;
- 6.3.3. Ichimlik suvi bilan o'zboshimchalik bilan foydalanib, suv sepilganda, avtomashinalar yuvilganda;
- 6.3.4 Suv o'lchash asbobi, moslamasi ishdan chiqqan, singan, buzilgan holatda, plombalari uzilgan bo'lsa sarflangan suv hajmi ushbu shartnoma 6 qismining 6.3 bandida ko'rsatilganiga muvofiq, eng so'nggi tuzilgan dalolatnoma muddatidan yangi suv o'lchash asbobi o'rnatilib, (ro'yhatdan o'tkazilgan) kungacha hisoblanadi;
Suvni hisobga olish asbobi iste'molchining aybisiz nosoz bo'lgan taqdirda sarflangan suv miqdori oldingi uch hisob-kitob oyidagi o'rtacha sarf bo'yicha aniqlanadi. Hisob-kitobning bunday tartibi bir oydan ko'p qo'llanilishi mumkin emas. Agar suvni hisobga olish asbobi ko'rsatilgan muddat mobaynida o'rnatilmasa, sarflangan suv miqdori I guruh iste'molchilari uchun — ushbu Qoidalar 87-bandining «a» kichik bandi bo'yicha, II va III guruh iste'molchilari uchun ushbu Qoidalar 87-bandining «b» kichik bandi bo'yicha hisob-kitob qilinishi;
- 6.3.5. "Iste'molchi"ning ichimlik suvi va kanalizatsiya tizimi kommunikatsiyalaridan suv isrof bo'lishi holatlari aniqlangan holatlarda;
- 6.3.6. "Ta'minotchi"ning suv o'lchash bo'g'inini diametri kichikroq bo'lgan moslamaga alishtirish to'g'risidagi talabnomasi qondirilmagan, bajarilmagan holatlarda;
- 6.3.7 Suv o'lchash asbobining hisob-kitobini olib borish bo'g'inidagi qo'yilgan himoya qoplamiga ruqsatsiz tegilish natijasida, ichimlik suv sof sarfini aniqlash imkoniyati chegaralangan;
- 6.4. Ichimlik suvi va oqova suv kommunal tizimlariga (jumladan yong'indan saqlanish gidrantlari va xonadon quvurlariga) o'zboshimchalik bilan ulanib olingan va foydalanilgan holatlar aniqlanganda, "Ta'minotchi" tomonidan dalolatnoma tuziladi va shu tuzilgan dalolatnoma o'zboshimchalik bilan ulanib olgan shaxsning javobgarligi darajasini aniqlash va "Ta'minotchi"ga yetkazilgan zararni hisoblash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bunda:
-to'lov muddati, eng so'nggi tuzilgan dalolatnoma sanasidan o'zboshimchalik bilan ulanib olingan kun sanasigacha yoki yangi suv o'lchash asbobi o'rnatilib, ro'yhatdan o'tkazilgan kungacha, yoki o'zboshimchalik bilan ulanish uzib tashlangan kunga qadar hisobga olinadi;
-o'zboshimchalik bilan ulanib olingan sanadan bu haqda ma'lum bo'lgan sanagacha, agar "Ta'minotchi" balansdagi tarmoqlarga ulanish sodir etilgan bo'lsa, bu muddat da'vo arizasi yozilgan muddatdan oshmasligi zarar. Agar o'zboshimchalik bilan ulangan sanani topish, aniqlash mumkin bo'lmasa, bu muddat da'vo muddatiga teng deb olinadi;
- 6.5 Texnik shartlar 2 yil muddatga beriladi. Belgilangan muddat tugagach buyurtmachi (obektни loyihalashtirish va qurishni boshlash uchun) loyiha muddatini cho'zdirishi yoki yangi texnik shartlarni olishi zarur.
Texnik shartlari mavjud bo'lmagan holda yoki muddati o'tgan holda, "Ta'minotchi" tomonidan suv uzatish xizmatlarini yakunlashga asos bo'ladi.
- 6.6. "Iste'molchi" kommunal suv ta'minoti va oqova suvni chiqarib yuborish tarmoqlariga ulanish sanasi haqidagi hujjatlarni taqdim etmagan holatlarda "Ta'minotchi" tomonidan, xokim qarori va kadastr hujjatlari va shu kabilar asosida, hujjat bilan tasdiqlangan ulanish sanasi bo'yicha hisob-kitob qilishga haqlidir.
- 6.7. Ishlatilgan ichimlik suvi va qabul qilingan oqova suv uchun to'lovlar, "Ta'minotchi" tomonidan taqdim etiladigan to'lov talabnomalari asosida ularga xizmat qiluvchi banklar orqali amalga oshiriladi. Bu to'lovlar "Iste'molchi" tomonidan 3 kunlik muddat ichida akseptsiz tartibda amalga oshiriladi. To'lovlar o'z vaqtida amalga oshirilmagan taqdirda, "Ta'minotchi" kechiktirilgan to'lovning har bir kuni uchun 0.4 % penya yozadi va uning umumiy qiymati asosiy to'lovning 50%dan oshmasligi lozim.
- 6.8. "Iste'molchi" hisob raqami bo'lmagan taqdirda, to'lovlar bank bo'limlarining kirim kassasi orqali, hisobot davridan keyingi 10 kun muddat ichida to'lanadi.
- 6.9. «Ta'minotchi» to'lovning har bir davri uchun, avvalgi oy to'lovining 100 % miqdorida oldindan to'lovlar (predoplata)ni belgilaydi va bu to'lov keyingi oy hisobiga qo'shiladi. Agar "Iste'molchi" ikki hafta muddat ichida to'lovni amalga oshirmasa, "Ta'minotchi" hech qanday ogohlantirishsiz ichimlik suvini yetkazib berishni yoki oqova suvlarini chiqarib yuborishni undirmagunga qadar to'xtatib qo'yish huquqiga ega. Bunday hollarda yong'indan saqlanish va sanitariya holatlari uchun javobgarlik to'liq "Iste'molchi" zimmasiga yuklatiladi. Suv ta'minoti va suv chiqarish tizimidan ilgari uzib qo'yilgan hollarda qayta ulashda II guruh iste'molchilaridan eng kam oylik ish haqining 10 (o'n) barobari miqdorida to'lov qayta ulashni amalga oshirgan tashkilot hisobiga mablag'larni o'tkazish orqali undiriladi;
Kanalizatsiya tizimiga ruqsat etilmagan yomg'ir va erkin qor suvlari oqizilayotgan ishlab chiqarish oqova suvlarini "Iste'molchi" lar tomonidan tashlash tartibi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 3 fevral kuni qabul qilingan 11 sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ishlab chiqarish oqova suvlarini qabul qilish qoidalarini" hamda ifloslantiruvchi moddalarning O'zbekiston Respublikasi shaharlari va boshqa aholi punktlarining kommunal kanalizatsiya tarmoqlariga normativdan ortiqcha oqizilganligi uchun "Iste'molchi"larga belgilangan tarifga nisbatan 3 (uch) barobar ortiriluvchi koeffitsient miqdor tartibida hisoblanadi.
- 6.10. Xisob-kitobning noto'g'ri qilinganligi (tariflarning noto'g'ri hisobiga olinganligi va shu kabi holatlar) to'g'risida "Iste'molchi" ga yoziladigan e'tiroznoma to'lov hujjati olingandan keyin 5 kun muddatda "Ta'minotchi"ga taqdim etilishi kerak. E'tiroznoma "Iste'molchi"ni to'lov xujjatida ko'rsatilgan summani to'liq va belgilangan muddatda to'lashdan ozod qilmaydi.

VIII. Nizolarni hal etish tartibi

- 7.1. Taraflar o'rtasida shartnoma yuzasidan kelib chiqqan nizolar, kelishuv yo'li bilan hal qilinadi. Agarada ikki tomonlama kelishuvga erishilmasa, nizolar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq sudlar tomonidan ko'rib chiqiladi.
- 7.2. Ushbu shartnomada belgilangan holatlar yuzasidan nizo kelib chiqqan taqdirda, Qonunchilikda belgilangan tartibda hal qilinadi.

IX. Fors – major

- 8.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch (fors major) holatlari (zilzila, suv toshqini, yong'in, sel, do'l, jala va boshqa tabiiy ofatlar) natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar muzkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.
Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.
- 8.2. Fors-major holati mavjud bo'lgan tomon 3 kun ichida boshqa tomonni fors-major xolati boshlangan muddatlarni ko'rsatgan holda yozma ravishda ogohlantirishi lozim.
- 8.3. Agar fors-major holatining shartnoma shartlarini bajarishga uch oydan ko'p muddat to'sqinlik qilsa, tomonlardan biri shartnomani bekor qilish huquqiga ega.

X. Shartnomaning amal qilish muddati

- 9.1 Ushbu shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo'lib, ikki tarafda bir nusxadan saqlanadi.
- 9.2 Shartnoma imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022 yilning 31 dekabrigacha amal qiladi.